ZAMONAVIY ADABIYOTDA QASIDA

S.M.Masharipova[1]

1. Osiyo xalqaro universiteti Xorazm filiali o'qituvchisi

Mas'ul muallif: Masharipova Sanamjon Muzaffar qizi, Osiyo xalqaro universiteti Xorazm filiali o'qituvchisi.

Received: 05 Noyabr 2026
Accepted: 10 Noyabr 2026
Published: 15 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Masharipova, S. M. ZAMONAVIY ADABIYOTDA QASIDA / S. M. Masharipova // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 1. — B. 483–485.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm adabiy muhitining zamonaviy davrida bitilgan qasidalar haqida fikr yuritilgan. Qasidalarning mavzusi, qofiyalanish tartibi, an'anaviy qasidalardan farqi keng yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: qasida, xorazmlik shoir, madh, band, qofiya, raviy.

КАСЫДА В СОВРЕМЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация. В данной статье рассматриваются оды, написанные в современный период литературной среды Хорезма. Подробно освещаются тематика од, порядок рифмовки и их отличия от традиционных од.

Ключевые слова: ода, хорезмский поэт, гимн, группа, рифма, рассказчик.

THE QASIDA IN CONTEMPORARY LITERATURE

Abstract. This article examines odes written in the contemporary literary environment of Khorezm. It provides a detailed analysis of their themes, rhyme patterns, and distinctive features that differentiate them from traditional odes.

Keywords: ode, Khorezm poet, hymn, group, rhyme, narrator.

Shunday she'riy janrlar mavjudki, ular faqat ma'lum bir davr mahsuli bo'libgina qolmasdan, shoir-u ijodkorlar tomonidan yangilanib, takomillashib boraveradi, bu an'ana XX asrda ham, XXI asrda ham davom etdi. "Qasida" atamasi arab tilidagi "qasd" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "maqsad", "niyat", "intilish" degan ma'nolarni ifodalaydi. Janrning nomidayoq uning mohiyati mujassam: shoir qasida yaratar ekan, oldiga aniq bir maqsadni qo'yadi, muayyan shaxs, voqea yoki g'oyani ulug'lashni ko'zlaydi. Bu she'riy shakl dastlab islomgacha bo'lgan arab she'riyatida yuzaga kelgan, so'ngra fors-tojik adabiyotiga o'tib, u yerda yangi badiiy bo'yoqlar bilan boyigan. Vaqt o'tishi bilan qasida turkiy she'riyatda ham o'ziga munosib o'rin topdi. Eski o'zbek adabiyotida bu janrning yetuk namunalari Sakkokiy ijodida ko'zga tashlanadi, keyinchalik Alisher Navoiy qasidachilik an'analarini yanada boyitib, uning g'oyaviy-badiiy ko'lamini kengaytirdi. XIX asrda esa Xorazm adabiy muhitida Munis va Ogahiy kabi ijodkorlar qasida janriga alohida e'tibor qaratgani ma'lum.Mumtoz qasida o'ziga xos kompozitsion qurilishga ega bo'lib, bir necha tarkibiy qismdan iborat bo'ladi. Uning boshlang'ich qismi nasib yoki tashbib deb yuritiladi. Bu qismda shoir tabiat go'zalligi, bahor manzarasi, ishq kechinmalari yoki dunyo haqidagi falsafiy mulohazalarni bayon etib, o'quvchini asosiy mavzuni qabul qilishga ruhan tayyorlaydi. Undan keyin guriz keladi: bu qism kirish bilan asosiy maqsad o'rtasida ko'prik vazifasini o'taydi. Qasidaning markaziy qismi madh hisoblanadi, unda mamduh, ya'ni madh etilayotgan shaxsning fazilatlari, adolati, saxovati, jasorati keng ta'riflanadi. Shakl jihatidan qasida g'azalga ancha yaqin turadi. Matla'dagi ikki misra o'zaro qofiyalanadi, keyingi baytlarda esa faqat ikkinchi misralar birinchi bayt bilan ohangdosh bo'ladi, ya'ni qofiyalanish a-a, b-a, d-a tartibida davom etadi. Shunga qaramay, bu ikki janr o'rtasida jiddiy farqlar mavjud. G'azal asosan lirik qahramonning ichki kechinmalarini ixcham shaklda ifodalasa, qasida keng ko'lamli, tantanavor ruhdagi she'r sifatida namoyon bo'ladi. Uning hajmi odatda o'n besh-yigirma baytdan kam bo'lmaydi, ba'zi namunalarda esa yuz baytdan ham oshib ketadi. Qasidada so'z tanlash, tashbeh, mubolag'a, talmeh kabi badiiy san'atlardan foydalanishga alohida ahamiyat beriladi, chunki ulug'lanayotgan obraz ko'tarinki uslubda tasvirlanishi talab etiladi.Mavzu yo'nalishiga ko'ra mumtoz qasidalar bir necha guruhga bo'linadi. Ular orasida eng keng tarqalgani madhiya qasidalardir; bunday asarlarda hukmdorlar, davlat arboblari, homiylar yoki diniy siymolar sharaflanadi. Diniy mazmundagi qasidalarda Allohga hamd, Payg'ambarga na't, munojot ohanglari yetakchilik qiladi. Pand-nasihat va falsafiy-axloqiy qasidalarda esa insonni ezgulikka, odob va ilmga chorlovchi fikrlar ilgari suriladi. Bundan tashqari, vafot etgan shaxs xotirasiga bag'ishlangan marsiya qasidalar ham uchraydi. Ayrim qasidalar tasvirlangan fasl yoki bayram nomi bilan bahoriya, xazoniya, iydiya kabi nomlar bilan ataladi. XX asr boshlaridan ijtimoiy-siyosiy hayotda ro'y bergan tub o'zgarishlar adabiyotning janrlar tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Saroy adabiyoti an'analari barham topgach, qasidadagi mamduh obrazi ham yangicha mazmun kasb etdi. Endi shoirlar hukmdorlarni emas, balki Vatanni, ona tilini, xalqni, buyuk ajdodlarni, ilm-ma'rifat va do'stlikni ulug'lay boshladilar. Bir muddat mumtoz janrlarga e'tibor susaygan bo'lsa-da,

mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarga, aruz she'riyatiga qiziqish qayta jonlandi. Natijada ko'plab ijodkorlar g'azal, muxammas, ruboiy bilan bir qatorda qasida janriga ham murojaat qilib, uni zamon ruhiga moslashtirishga harakat qildilar. Zamonaviy qasidalarda kompozitsion qismlarning barchasi har doim ham saqlanib qolavermaydi. Ko'p hollarda nasib va guriz qisqartiriladi yoki butunlay tushirib qoldiriladi, shoir esa to'g'ridan-to'g'ri asosiy maqsad – madhga o'tadi. Shakliy jihatdan ham sezilarli yangilanish kuzatiladi: ayrim ijodkorlar an'anaviy bayt tuzilishidan voz kechib, qasidani to'rt yoki besh misrali bandlar shaklida yozadi, qofiyalanish tartibini erkinroq tanlaydi. Shunga qaramay, madhiya ruhi, tantanavor ohang, yuksak badiiy uslub kabi janrni belgilovchi asosiy xususiyatlar saqlanib qolmoqda. Aynan shu jihatlar zamonaviy she'rlarni qasida sifatida baholash imkonini beradi.

Bu davr qasidalarini 2 turga ajratish mumkin:

Shakl jihatidan o'zgarmagan an'anaviy qasidalar.

Shaklan o'zgargan, ammo aruz vaznida, madhni saqlab qolgan holda bitilgan qasidalar.

O'zbekning atoqli va ardoqli shoiralaridan biri Zebo Mirzo she'riyatida qasidaning go'zal namunasini uchratamiz. Uning qasidasi "Ona tiliga qasida" deb nomlangan bo'lib, hajmi 4 satrlik 21 band,ya'ni 84 misrani tashkil qiladi:

Hali bashariyat murg'ak uyquda
Bilmaganda qalam, harf-u imloni.
U tog'lar ko'ksiga gul qilib chizdi,
Gul deya anglatdi yorug' dunyoni.

Qasida 2016-yilda yozilgan bo'lib, mavzusiga ko'ra madhiya qasidadir va har bir band o'z ichida qofiyalangan, ya'ni 1-band a-b, d-b; 2-band a-b, a-b; 3-band a-a, b-a kabi.

Yuqoridagi misralar orqali shoira o'zbek tilining naqadar qadimiy ekanligini uqtiradi. Bu qasidada ham o'zbek xalqining tarixi yorqin lavhalarda aks ettirilgan:

O'ylaganmi tarix ming yillar nari
Ko'rayin deb dunyo o'zbeklarini.
Sohibqiron tutgan tug' bilan g'olib
Tuzganida "Temur tuzuklarini!"

Ijodkor o'zbek tilini ta'riflashda davom etar ekan, uni futbol maydonidagi eng odil hakamga qiyos etadi:

Kim seni tanimas, tan olmaydi kim,
Kamtar kamolingni maqtash shart emas!
Futbol maydonida eng odil hakam,
Shaxmat qirolining yurishiday bas!

Xorazm adabiy muhitining zamonaviy davriga yuzlanadigan bo'lsak, unda Bahrom Ro'zimuhammad, Shoira Shams, Qurbon Muhammadrizo, Erkin Samandar, Matnazar Abdulhakim, Oshiq Erkin (Erkin Madrahimov), Omon Matjon, Komil Avaz kabi shoirlar o'zining takrorlanmas ijodi bilan bu muhitda munosib o'ringa egadirlar. Bu muhit vakillari ham mumtoz adabiyot an'analarini davom ettirib, mumtoz she'riy janrlar orqali badiiy mahoratlarini yanada yuksaltirishgan, desak mubolog'a bo'lmaydi.

Jumladan, Shoira Shams (Shoira Qalandarova, "Shams" uning adabiy taxallusi) mumtoz she'riyat an'analariga ergashib, devon tuzish orqali o'z ijodiy merosini boyitgan.

Shoiraning "Vafo maxzani" deb nomlangan devoni mavjud bo'lib, unga g'azal, mustahzod, muxammas (Navoiy, Bobur, Ogahiy, Matnazar Abdulhakim g'azallariga muxammaslar), murabba', musaddas, masnaviy, qasida, qit'a, ruboiy, chiston, tuyuq, fard kabi lirik turdagi janrlar jamlangan.

Mumtoz adabiyotdagi singari ijodkor devoni an'anaviy debocha va Allohga hamd bilan boshlangan va bu shoiraning yuksak iste'dod sohibasi ekanligidan dalolat beradi.

Devondan o'rin olgan "Turkiy tilim" qasidasi mavzusiga ko'ra madhiya qasida bo'lib, hajmi 13 baytni tashkil qiladi. Qasidadan parcha keltiramiz:

Jon naqshiga chin zargarim – turkiy tilim,
Dil ganjiga dur-gavharim – turkiy tilim.
Har uni-yu har na'rasida o'zligim,
Ruhimga ham jonparvarim – turkiy tilim.
Derman, bashar tarixida davring qadim,
Ming yillaridan so'ylarim – turkiy tilim.

Qasida g'azal kabi, ya'ni a-a, b-a, d-a... qofiyalanish tartibiga ega bo'lib, "turkiy tilim" birikmasi radif sifatida kelgan.

Ijodkor qasidada xalq tarixini ochib berishga harakat qilgan, lekin, fikrimizcha, qasida hajmining kichkinaligi bu jarayonni to'liq ochib berishga to'sqinlik qilgan. Shuning uchun ham shoira "ta'rifingni qilaversam adosi yo'q" deya quyidagi baytni keltiradi:

Bir-bir desam, bo'lmas adosi tashbehim,
Tutsam qalam sen so'zgarim – turkiy tilim.

Qasidada "zargarim, gavharim, jonparvarim, so'ylarim, sarkarim, kishvarim, javharim, dilbarim, sarvarim" so'zlari qofiya sifatida kelgan, "r" harfi raviy vazifasini bajargan hamda raviydan keyin ham harflar kelganligi bois mutlaq qofiya turiga mansubdir.

Shayx Ahmad Taroziy qasidada taxallus keltirish ixtiyoriy ekanligini aytib o'tgan edi. "Turkiy tilim" qasidasini ko'zdan kechirar ekanmiz, shoira qasida so'ngida taxallus keltirib o'tadi:

Shoira sen birla samo raqsidadur,
Parvoz uchun bol-u parim – turkiy tilim.

Xorazm adabiy muhitining ko‘zga ko‘ringan, adabiyotimiz rivojiga yangi-yangi asarlari bilan hissa qo‘shayotgan vakillaridan yana biri Qurbonboy Matrizoyev – Qurbon Muhammadrizodir. Shoir sifatida mumtoz lirikaning g‘azal, muxammas, qasida kabi janrlarida barakali ijod etgan.

Ijodkor she’riy merosidagi qasidani olib qaraydigan bo‘lsak, “Jonim fido, turkim” deb nomlangan bo‘lib, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining 2022-yil 21-iyul kuni o‘tkazilgan Maslahat uchrashuviga bag‘ishlangan:

1-band:
Seni necha zamon kutdim, qilib dildan nido, Turkim,
Necha diydor ko‘rib, necha dedimki, alvido, Turkim, Necha yil boshim uzra o‘ynadi chirkin balo, Turkim, Chekib mendan qo‘lin, uzdi umid arshi a’lo, Turkim, Guvohdir bunga Gurganjim, guvoh Ellikqal’a, Turkim.

Qasida 5 satrlik 5 banddan iborat bo‘lib, madhiya qasidalar turiga mansub, unda turkiy xalqni e’zozlash, sharaflash, uning tarixini badiiy bo‘yoqlarda aks ettirish birinchi o‘rinda turadi:

3-band:
Jaloliddin, “Tur-ey, uyg‘on!” dedi, qo‘lga kamon berdi
Navoiy yakqalam qildi elin, unga zabon berdi,
Yusuf Emro, Manas, Maxtumquli – turk imtihon berdi,
Ango Jomiy-u Berdax Ogahiyni keng jahon berdi,
Ham ul Cho‘lpon, Abay chorlar: zulmni qil ado, Turkim.

Qasidada “Turkim” so‘zi asosiy radif sifatida kelgan bo‘lib, o‘ziga xos qofiyalanish tartibiga ega:

1-band a-a, a-a, b tarzida qofiyalangan bo‘lib, nido, alvido, balo, a’lo so‘zlari qofiya vazifasini bajargan. Qofiyada “o” harfi raviy vazifasida kelgan bo‘lib, qofiya faqat o‘zakdan iborat bo‘lganligi uchun muqayyad qofiya turiga mansubdir.

2-bandni ko‘zdan kechirar ekanmiz, a-a, a-a, b tarzida qofiyalanish tartibiga ega bo‘lib, qofiyasiga ko‘ra mutlaq qofiyadir, ya’ni qofiya sifatida kelgan so‘zlar o‘zak va qo‘shimchalardan iboratdir:

Bizni bilmoq esa kimlar, “Avesto” ilmidin so‘rsin,
Qora bag‘rim, qora qonim qorilgan qumidin so‘rsin,
Xorazmiy, Beruniy, Ulug‘bek elidin so‘rsin,
Kafan hadya qilib ketgan , u Chingiz zulmidin so‘rsin,
Qovushmay bir-biriga, yo‘lda qolgan mubtalo Turkim.

3-bandda ham misralar a-a, a-a, b tarzida qofiyalangan, “kamon, zabon, imtihon, jahon” so‘zlari qofiya vazifasini bajargan hamda muqayyad qofiyadir.

4-band:
Olibsan erkingni, asra, oni ko‘zga nisor etgin,
Seni olqishlagay avlodlaring, do‘stlik shior etgin,
Yurak bir, din- u iymon bir, ki birlik ixtiyor etgin,
Jahonda qudratim bo‘lsin desang, turkiy diyor etgin,
Berib qo‘l, bo‘lma hargiz bir-biringdan hech judo, Turkim.

Bu bandda ham so‘zlar a-a, a-a, b kabi qofiyalangan va so‘zlar faqat o‘zakdan iborat bo‘lganligi bois muqayyad qofiya hisoblanadi.

5-bandda ishtirok etgan qofiya so‘zlari quyigadilardir: oftob, xitob, tavof, javob. Bu qofiyani ham muqayyad qofiya turiga kiritamiz.

Qasidaga umumiy nazar tashlaydigan bo‘lsak, har band oxiridagi 5-misralar o‘zaro qofiyalangan: mubtalo, ado, judo, fido.

Shoir qasida so‘ngida taxallus keltiradi:
Ayo, Qurbon, umid qilg ‘on savolingga javob keldi,
Sanga ming sajda aylab, jonimni qilgim fido, Turkim.

Qasida mavzusiga ko‘ra madhiya qasida hisoblanib, unda turkiy xalq sharaflangan, birlashishga undalgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, zamonaviy adabiyotda qasida shakl jihatidan o‘zgardi, ammo ulardagi mavzu an’anaviy qasidalar izini davom qildirdi, ya’ni mumtoz qasidaga xos an’anaviylik saqlanib qoldi. Bu davr adabiyotida, asosan, madhiya qasidalar birinchi o‘ringa chiqdi va ularda Vatanni ulug‘lash, uning shonli tarixini badiiy bo‘yoqlarda aks ettirish, ona tiliga bo‘lgan muhabbat hissi ustuvorlik kasb etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Shoira Shams. Samandar:she’rlar . Devon. – Urganch: "Quvonchbek-Mashxura" MCHJ nashriyoti, 2019-yil,5-bet.
[2] Umurov H. Adabiyot nazariyasi. Darslik. – T.: Sharq, 2002. – 256 b.
[3] Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари.Т.:Ўзбекистон. -2002. 560 б.
[4] Қасида. Тўплам. Тузувчи ва сўзбоши муаллифи Талабов Э. – Тошкент.:Ёш гвардия, 1990. – 96 б.
[5] Абдуллаев Ҳ. Хоразмийлар муқаддас битикларда. – Т.: 2011. – 51 б.
[6] Юсупов Ю. Хоразм шоирлари. – Тошкент, 1967. –138 б.
[7] Юсупов Ю. Ўт чақнаган сатрлар. – Тошкент, 1983.